

**QOFIYALI NASR YOHUD SAJ' SAN'ATI**

*Yunusov F.*

*Arabshunoslik Oliy maktabi*

*1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya**

Maqolada o'rta asrlarda arab adabiyotida shakillangan va badiiy san'atlar qatoriga kiruvchi san'atlardan saj' san'ati haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek uning kelib chiqishi, nasriy asarlarda qo'llanilgan uslublariga ko'ra qanday turlarga bo'linishi, qay tariqa so'zga joziba bahshida eta olishi borasida so'z yurutilib, Qur'oni karim oyatlari hamda shoirlar va adiblar asarlaridan keltirilgan misollar orqali saj' qo'llanishi kuzatilgan.

**Kalit so'zlar:** arab adabyoti, saj', qofiyali nasr, aruz vazni, saj' al-muroso, saj' al-mutavazin, saj-al mutavazi, saj al-mutorrof, saj' al-qasir, saj' al-mutavassit, saj' at-tavil

**Тема: Рифмованная проза или искусство Саджа**

**Абстрактный**

В статье представлены сведения об искусстве рифмованной прозы - садже, которое сформировалось в средние века в арабской литературе и является одним из видов изобразительного искусства. Также говорится о его происхождении, о том, как он делится на типы по формам. Использование саджа рассматривается на примерах, приведенных из аятов Священного Корана и произведений арабских средне вековых писателей.

**Ключевые слова:** арабская литература, садж, рифмованная проза, вес аруз, садж аль-муросо, садж аль-мутавазин, садж-аль-мутавази, садж аль-мутарроф, садж аль-касир, садж аль-мутавассит, садж ат-тавил

**Topic: Rhymed Prose or the Art of Saj**

**Abstract**

The article presents information about the art of rhymed prose - saj, which was formed in the Middle Ages in Arabic literature and is one of the types of fine art. It also talks about its origin, how it is divided into types by form. The use of saj is considered using examples from the verses of the Holy Quran and the works of Arabic medieval writers.

**Keywords:** Arabic literature, saj, rhymed prose, aruz, saj al-muroso, saj al-mutawazin, saj-al-mutawazi, saj al-mutarrof, saj al-kasir, saj al-mutawassit, saj at-tawil

Azaldan arablar yuksak soʻz sanʼati bilan faxrlanib keladilar. Arab adabiyotida soʻz sanʼatiga katta eʼtibor berilib, badiiy ifoda uslubi esa asrlar davomida sayqallanib, jumlar qofiyadosh shaklda tuzilib, turli badiiy bezaklar bilan boyitilib boriladi. Qofiyali nasr yoki Sajʼ sharq badiiy adabiyotining oʻziga xos uslublaridan biridir. U maqol va matallarda, koʻplab mashhur arab notiqiqlari va adiblari soʻzlarida keng ishlatilgan.

X asrning oxiriga kelib Badiʼ az-Zamon al-Xamadoniy maqomalar Qofiyali nasr yoki Sajʼ sharq badiiy adabiyotining oʻziga xos uslublaridan biridir. U maqol va matallarda, koʻplab mashhur arab notiqiqlari va adiblari soʻzlarida keng ishlatilgan. tanilgan badiiy hikoyalar toʻplamini qofiyali nasrda taʼlif etdi va bu bilan u bu yozuv uslubini badiiy adabiyot darajasiga koʻtarib, haqli ravishda yangi adabiy janr asoschisi deb eʼtirof etildi. Al Xamadoniydan soʻng al-Haririy oʻzining maqomalarini qofiyali nasrda taʼlif etdi.

Qofiyali nasr al-Xamadoniy va al-Haririy maqomalari tufayli badiiy soʻz sanʼatidagi asosiy shakllardan biriga aylandi. Buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariy arab tili lugʻat boyligidan keng foydalanib, soʻz oʻyini va arab yozuvi xususiyatlarini mohirona qoʻllagan holda oʻzining “Maqomot az-Zamaxshariy” asarini avvalgi mualliflar kabi qofiyali nasrda - Sajʼda taʼlif etdi..

Bizning diyordlarda Sajʼ shoxlarning saroy yozishmalarida, tarixiy, ilmiy va badiiy nasrda ham qoʻllanilgan. Mumtoz adabiyotda Navoiy, Bobur, Gulxaniy kabi shoirlar Sajʼdan unumli foydalanishgan. Navoiy oʻzbek nasrida Sajʼ sanʼatini eng yuqori choʻqqiga koʻtardi. Oʻzbek adabiyotida Hamza, Abdulla Qodiriy, Gʻafur Gʻulom, Oybek va boshqalar ijodida ham Sajʼning namunalari bor.

**Sajʼ** arabcha **سجع** felidan olingan boʻlib, barobar boʻlmoq, tekis boʻlmoq va bir biriga oʻxshamoq degan maʼnolarni anglatadi. Qadimda kabutarning sayrashiga nisbatan ham Sajʼ kalimasi ishlatilgani haqida maʼlumotlar ham bor, broq Ibn Durayd bu qarashni inkor etgan.

Isteʼlohda esa Sajʼ deb, qofiyali gapga nisbatan ishlatiladi. Sajʼning isteʼlohiy maʼnosiga koʻplab balogʻatshunos olimlar taʼrif bergan boʻlib, bu taʼriflarning deyarli barchasi ushbu “Sajʼ - bu, nutqdagi jumalarning ohirlari, yo qofiya jihatidan, yoki aruz vazni jihatidan oʻzaro muvofiq boʻlishidir” degan tushuncha atrofida aylanadi. Sajʼ turlinxususiyatlarga koʻra bir qancha qismlarga boʻlinadi.

### ***Sajning uzunligiga koʻra turlari***

Balogʻatshunos olimlar Sajʼni uzun-qisqaligiga koʻra uch qismga : qisqa, oʻrta va uzun Sajʼ qismlariga boʻladilar . Faqatgina Ibn Asirgina Sajʼni ikki : uzun va qisqa turlarga boʻlinadi degan. Biroq ularning barchalari ushbu turlarning eng afzali Sajʼ alqosir (qisqa koʻrinishdagi Sajʼ turi) ekanliga ittifoq qilishgan. Endi har uch qism bilan misollar orqali tanishib chiqsak.

O'z nomi bilan ma'lumki qisqa ko'rinishdagi Saj' - Saj' san'ati ishlatilgan jumalarning juda kam so'zlardan tashkil topgan ko'rinishi hisoblanadi. Shuningdek qisqa ko'rinishdagi Saj' eng afzali bo'libgina qolmay Saj' turlarining orasida eng murakkabi hamdir. Qisqa ko'rinishdagi Saj' turining murakkab ekanligi borasida Abdul qodir Xusayn o'zining "Fann al badii" kitobida shunday deydi: "Bu tur Saj' turlarining uslubiy jihatdan eng qiyini, quloqqa yoqimlirog'i, qalb uchun esa yengilrog'idir". Davomida buning sababini izohlab "qachonki qisqa ko'rinishdagi Saj' qo'llangan jumladagi lafzlar qisqaroq bo'lganida, ularning tugash o'rinlari ham bir biriga yaqinligi sabab jumla boshqa Saj' turlari ishlatilgan jumladan afzalroq va nafisroq bo'ladi" deydi va bu holatni u, jummalarni huddi payvand qilingandek o'zaro jipslashtirishga o'xshatadi.

Saj'ning qisqa ko'rinishdagi turiga misollar:

قال تعالى: (وَالْمُرْسَلَاتِ عُرْفًا \*فَالْعَاصِفَاتِ عَصْفًا).

1. Qasamyod etaman, paydar-pay esdiriladigan (shamol)lar bilan.
2. Quturadigan (bo'ron)lar bilan.<sup>1</sup>

قول الهمذاني: "أشأبٌ عهدي، أم شابٌ عهدي."

**السجع المتوسط Saj' rta uzunlikdagi**

Saj'ning o'rta uzun shaklidagi ushbu turi, boshqa turlaridan lafzlarining o'rta miqdorda bo'lishi yoki Saj' alqosir dan ko'proq adaddagi so'zlardan tashkil topgani bilan ajralib turadi.

Buning misoli esa quyidagichadir:

قال تعالى: (سَبِّحْ اسْمَ رَبِّكَ الْأَعْلَى \*الَّذِي خَلَقَ فَسَوَّى).

1. (Ey Muhammad!) Eng oliy zot bo'lmish Rabbingizning ismi bilan tasbeh ayting!
  2. Zero, U (barcha narsani) yaratib, barpo qilgan.<sup>2</sup>
- قال تعالى: (اقْتَرَبَتِ السَّاعَةُ وَانْشَقَّ الْقَمَرُ \*وَإِنْ يَرَوْا آيَةً يُعْرَضُوا وَيَقُولُوا سِحْرٌ مُسْتَمِرٌّ).

1. Qiyomat yaqinlashdi. (Mana, ilohiy mo'jiza sifatida) Oy ham bo'lindi.
2. Agar ular (Quraysh kofirlari) biror mo'jiza ko'rsalar yuz o'girurlar va «(Bu) davom etayotgan sehr-ku!» derlar.<sup>3</sup>

قول القاضي فاضل: "وكانت قدرة الله تصرف العنان بالعيان، عقوبة من الله ليس لصاحب يد بها يدان."

**السجع الطويل Saj' uzun ko'rinishdagi**

O'z nomiga muvofiq ushbu turning qolgan Saj' turlaridan farqi jumladagi Saj'langan kalimalarning adadi ko'pligida bo'lib buni misollar orqali tushunish o'rinliroqdir :

<sup>1</sup> Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T: "Toshkent Islom universiteti" nashriyot – matbaa birlashmasi. 2016. – B. 580.

<sup>2</sup> Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T: "Toshkent Islom universiteti" nashriyot – matbaa birlashmasi. 2016. – B. 591.

<sup>3</sup> Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T: "Toshkent Islom universiteti" nashriyot – matbaa birlashmasi. 2016. – B. 393.

قال تعالى: (وَلَيْنَ أَذَقْنَا الْإِنْسَانَ مِنَّا رَحْمَةً ثُمَّ نَزَعْنَاهَا مِنْهُ إِنَّهُ لَيَكْفُرُ \* وَلَيْنَ أَذَقْنَاهُ نِعْمَاءَ بَعْدَ ضَرَاءٍ مَسَّئُهُ لَيَقُولَنَّ ذَهَبَ السَّيِّئَاتُ عَنِّي إِنَّهُ لَفَرِحٌ فَخُورٌ)  
 قول امامة بنت الحارث لابنتها: "ثم اتقي مع ذلك الفرح بين يديه إن كان ترحاً، والاكنتاب بين يديه إن كان فرحاً."

### Saj' ning "Aruz" vazniga ko'ra turlari

Balog'at ilmi olimlari Saj' ni Aruz vazni jihatidan to'rt qisimga bo'linishini ta'kidlab, uni daraja jihatidan yuqoridan past ga tomon quyidagicha tartiblab chiqqanlar:

naqshlangan Saj' السجع المرصع  
 vazndosh Saj' السجع المتوازن  
 o'zaro parallel Saj' السجع المتوازي  
 sayqallangan Saj' السجع المطرف

**Saj' al murosso'** bu - Sajdagi ikki yoki undan ortiq jumlar lafzlarining ham qofiyada, ham aruz vaznida o'zaro muvofiq bo'lishligi bo'lib, uni Qur'oni karimda va shoirlarning so'zlarida kelgan quyidagi kabi misollar orqali osonroq tushunishimiz mumkin.

قال تعالى: (إِنَّ إِلَيْنَا إِيَابَهُمْ \* ثُمَّ إِنَّ عَلَيْنَا جِسَابَهُمْ). السَّجْعُ الْمُرْصَعُ بَيْنَ: (الْيَنَاءِ-عَلَيْنَا/إِيَابَهُمْ-جِسَابَهُمْ)

25. Zero, qaytishlari yolg'iz O'zimizgadir!

26. So'ngra ularni (qiyomat kuni) hisob-kitob qilish ham faqat Bizning zimmamizdadir.<sup>4</sup>

قول الهمذاني: "إِنَّ بَعْدَ الْكُدْرِ صَفْوَاءٌ، وَبَعْدَ الْمَطْرِ صَحْوَاءٌ".  
 السَّجْعُ الْمُرْصَعُ بَيْنَ: (الْكَدْرِ-الْمَطْرِ/صَفْوَاءٌ-صَحْوَاءٌ)

**Saj' al mutavazin** bu - Sajda ikki jumladan har birining ohirgi kalimasi o'zaro qofiyada bir hil bo'lmay, faqat aruz vaznidagina muvofiq bo'lishligidir bunga quyidagilar misol bo'ladi:

قال تعالى: (وَنَمَارِقُ مَصْفُوفَةٌ وَرَزَابِيٌّ مَبْنُوثَةٌ). السَّجْعُ الْمُتَوَازِنُ بَيْنَ: (مَصْفُوفَةٌ-مَبْنُوثَةٌ)،

15. Tizib qo'yilgan yostiqlar

16. Va to'shalgan gilamlar bordir.<sup>5</sup>

Ushbu ketma-ketlikda vaznlar o'zaro muvofiq (مَفْعُولَةٌ-مَفْعُولَةٌ): bo'lsada, quyidagi ketma-ketlikda (الفاء-الثاء) qofiyalar turfa hildir. To al-marbuta esa qofiya bobida e'tborga molik hisoblanmaydi.

قال أحد البلغاء: "النَّاسُ كَالْأَهْدَافِ لِنَابِ الْأَمْرَاضِ" السَّجْعُ الْمُتَوَازِنُ بَيْنَ: (الأهداف-الأمراض)،

Bu o'inda ham vaznlar muvofiqligi bilan bir qatorda (الأفعال-الأفعال), qofiyalarning o'zaro turfa hil (الفاء-الضاد) ekanligini kuzatishimiz mumkin.

قال تعالى: (وَمَا أَدْرَاكَ مَا الطَّارِقُ \* النَّجْمُ الثَّاقِبُ).

2. (Ey Muhammad!) Siz Zuhul nima ekanini qayerdan ham bilar edingiz?!

<sup>4</sup> Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T: "Toshkent Islom universiteti" nashriyot – matbaa birlashmasi. 2016. – B. 455.

<sup>5</sup> Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T: "Toshkent Islom universiteti" nashriyot – matbaa birlashmasi. 2016. – B. 455.

3. (U nuri) o'tkir yulduzdir.<sup>6</sup>

السَّجْعُ الْمُتَوَازِنُ بَيْنَ: (الطَّارِقُ-النَّاقِبُ)، والأوزان -على الترتيب- تتوافق هنا: (الفاعل-الفاعل)، لكنها تختلف في القافية -على الترتيب-: (القاف-الباء).

**Saj al mutavaziy** bu ikki jumkaning ohiri bir biriga ham aruz vaznida ham qofiyada muvofiq kelishligi bo'lib buni quyidagi misollarda tushunamiz:

قال تعالى: ( فِيهَا سُرُرٌ مَّرْفُوعَةٌ \* وَأَكْوَابٌ مَّوْضُوعَةٌ )  
السَّجْعُ الْمُتَوَازِي بَيْنَ: (مَّرْفُوعَةٌ-مَّوْضُوعَةٌ)

13. U joyda baland so'ralar.

14. Qo'yilgan qadahlar (bordir).<sup>7</sup>

قول الحريري: "وأودى بي الناطق والصامت، ورثى لي الحاسد والشامت"  
السَّجْعُ الْمُتَوَازِي بَيْنَ: (الصَّامِت-الشَّامِت)

**Saj al mutorrof** bu ikki jumlaning ohiri vaznda muvofiq bo'lmay faqatgina qofiyada bir hil bo'lishligidir :

قال تعالى: ( مَا لَكُمْ لَا تَرْجُونَ لِلَّهِ وَقَارًا \* وَقَدْ خَلَقَكُمْ أَطْوَارًا ). السَّجْعُ الْمُطْرَفُ بَيْنَ: (وقاراً-أطواراً)، والأوزان -على الترتيب- تختلف هنا: (فَعَالًا-أَفْعَالًا).

13. Nega sizlar Allohni ulug'lashni (ibodat qilishni) o'ylamaysiz?!

14. Holbuki, U sizlarni (ona qornidagi vaqtingizdan boshlab) bosqichma-bosqich yaratgan bo'lsa?!<sup>8</sup>

قول أعرابيٍ ذهب السَّيْلُ بانيه: "اللَّهُمَّ إِنْ كُنْتَ قَدْ أَبْلَيْتَ، فَإِنَّكَ طَالَمَا قَدْ عَاقَيْتَ". السَّجْعُ الْمُطْرَفُ بَيْنَ: (أَبْلَيْتَ-عَاقَيْتَ)، والأوزان -على الترتيب- تختلف هنا: (أَفْعَلْتَ-فَاعَلْتَ).

قال تعالى: ( أَلَمْ نَجْعَلِ الْأَرْضَ مِهَادًا \* وَالْجِبَالَ أَوْتَادًا ). السَّجْعُ الْمُطْرَفُ بَيْنَ: (مِهَادًا-أَوْتَادًا)،

6. Biz Yerni to'shak qilib qo'ymadikmi?!

7. Tog'larni esa (Yerni tutib turuvchi) qoziqlar qilib qo'ymadikmi?!<sup>9</sup>

والأوزان -على الترتيب- تختلف هنا: (فَعَالًا-أَفْعَالًا).

Ushbu o'rinda esa ohirgi kalimalar qofiyadosh bo'lsa ham vaznda turlicha kelyabdi.

Yuqoridagi misollarda ham jumlar ohirlarining qofiyada o'zro muvofiq bo'lib vaznda turfa hil holatlardada kelganini ko'rishimiz mumkin.

Guvohi bo'lganimizdek qaysi bir turi bo'lmasin Saj' san'ati badiiy san'atning ser qirrali mo'jizakor va betakror san'at turlaridan hisoblanadi, Bu turning ajablanarli va nozik qirralarini yorqin ko'rsatib berish esa bevosita so'z sohibining mahorati bilan bog'liq hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Johiz. Kitab al-bayan va-t-tabyin. Qohira, 1970, J.1.

<sup>6</sup> Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T: "Toshkent Islom universiteti" nashriyot – matbaa birlashmasi. 2016. – B. 453.

<sup>7</sup> Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T: "Toshkent Islom universiteti" nashriyot – matbaa birlashmasi. 2016. – B. 455.

<sup>8</sup> Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T: "Toshkent Islom universiteti" nashriyot – matbaa birlashmasi. 2016. – B. 430.

<sup>9</sup> Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T: "Toshkent Islom universiteti" nashriyot – matbaa birlashmasi. 2016. – B. 442.

2. Ahmad Ahmad Badaviy. Usas an-naqd al-arabiy inda al-arab. Qohira, 1964.
3. Abul Faraj al-Isfaxoniy. Kitab al-ag'aniy. J, 2.
4. Ибрагимов Н.И. Арабский народный роман, Москва, Наука, 1984.
5. Atoulloh Husayniy. Badoye`u-s-sanoye. Toshkent, 1981.
6. Mahmud Zamahshariy. Maqomot az-Zamaxshariy. Qohira, 1907.
7. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T: "Toshkent Islom universiteti" nashriyot –matbaa birlashmasi. 2016.